



**O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi**



**KADASTR  
AGENTLIGI**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo‘jaligi vazirligi**



**O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va  
tomorqa yer egalari kengashi**

# **FERMER XO‘JALIGI BOSHLIG‘INI O‘ZGARTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH BO‘YICHA**

## **USLUBIY QO‘LLANMA**

**TOSHKENT-2023**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KADASTR AGENTLIGI  
O‘ZBEKISTON FERMER, DEHQON XO‘JALIKLARI VA TOMORQA YER  
EGALARI KENGASHI

---

**N. Rustambekov, N. Tillyayev, S. Azizov, YA. Xasanov**

**FERMER XO‘JALIGI BOSHLIG‘INI O‘ZGARTIRISH  
VA RASMIYLASHTIRISH BO‘YICHA**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

1.	Kirish	5
2.	Umumiy qoidalar	6
3.	Fermer xo'jaligi boshlig'ining o'zgartirish asoslari	6–7
4.	Fermer xo'jaligi boshlig'i o'zgartirilishi rasmiylashtirish tartibi	
	Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etganda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqining merosxo'rlarga o'tish tartibi	8–10
	Yer uchastkasiga bo'lgan ijaraga huquqini fermer xo'jaligining yangi boshlig'iga o'tkazish tartibi	11–14
5.	Fermer xo'jaligi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari	15
6.	Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot qilganligi munosabati bilan yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha tuman (shahar) hokimligiga yoziladigan ariza namunasi	16
7.	Yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha kelishuvning namunaviy loyihasi	17–18
8.	Fermer xo'jaligining yig'ilish bayoni namunasi	19–20
9.	Fermer xo'jaligining boshlig'i almashganligi munosabati bilan yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha tuman (shahar) hokimligiga yoziladigan ariza namunasi	21
10.	Yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha uch tomonlama kelishuvning namunaviy loyihasi	22–24

## I. KIRISH

Fermer xo'jaligi boshlig'ini o'zgartirish va rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy qo'llanma (keyingi o'rinlarda – **Qo'llanma** deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi hamda O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda ishlab chiqilgan.

**Qo'llanma** fermer xo'jaligining boshlig'i o'zgargan taqdirda, ushbu o'zgarishlarni qonunchilik talablariga muvofiq tartibda rasmiylashtirilishida **yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish maqsadida ishlab chiqildi.**

Qo'llanmada fermer xo'jaligining boshlig'i o'zgarishining asoslari, tartibi va shartlari, bunday o'zgarishni rasmiylashtirish tartibi va hujjatlarning namunalari hamda sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlariga havolalar keltirib o'tilgan.

Qo'llanmani **ochiq manbalarga joylashtirishga ruxsat beriladi** va undan **foydalanish bepul** hisoblanadi.

Qonunchilik hujjatlari o'zgarishi munosabati bilan ushbu Qo'llanma takomillashtirib boriladi, shu sababli Qo'llanma yangilangan sanasiga e'tibor qaratish lozim.

Qo'llanma ishlab chiqilgan sana: **13.03.2023 yil.**

## II. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur qo'llanma fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etganda, pensiya yoshiga to'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilingan, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylangan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqini "Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida"gi shartnomaga (keyingi o'rinlarda – **yer ijara shartnomasi**) o'zgartishlar kiritish orqali talablariga javob beradigan o'z oila a'zolaridan biriga qonunchilikka muvofiq yer ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berishda huquqni qo'llash amaliyotini tartibga soladi.

2. Qo'llanma tuman (shahar) hokimliklari va davlat boshqaruvi organlari xodimlari uchun xizmat vazifalarini bajarishda metodik qo'llanma vazifasini o'taydi.

3. Mazkur qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti;

**fermer xo'jaligining boshlig'i** – shu xo'jalikning muassisi bo'lgan fermerdir;

**oilalar** – er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar).

## III. FERMER XO'JALIGI BOSHIG'INI O'ZGARTIRISH ASOSLARI

4. Fermer xo'jaligining boshlig'ini o'zgartirish bu **majburiyat emas**, balki bevosita fermer xo'jaligining **boshlig'i** va fermer xo'jaligini boshqarishni o'z zimmasiga olayotgan **oilalar** a'zolaridan **birining huquqi** hisoblanadi.

“Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning [13-moddasga](#) muvofiq yer uchastkasini fermerlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ijaraga olish huquqini yer ijara shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish orqali o‘z oila a‘zolaridan biriga yer ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga berish uchun quyidagi holatlar **asos bo‘ladi**:

- vafot etganligi;
- pensiya yoshiga to‘lganligi;
- mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi;
- muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi;
- oliy ta‘lim muassasalariga kunduzgi o‘qishga qabul qilinganligi;
- saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi.

Yuqoridagi holatlardan biri yuz berganda fermer xo‘jaligi boshlig‘i xohishiga ko‘ra, oila a‘zolaridan biriga fermer xo‘jaligi boshlig‘i vazifasini o‘tkazishi mumkin.

Fermer xo‘jaligining yangi boshlig‘i o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi lozim.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo‘jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiyashtirilishi, shuningdek oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo‘lishi **mumkin emas***

Fermer xo‘jaligining boshlig‘i almashgan taqdirda yer ijarasi muddati yangidan hisoblanmaydi, aksincha, fermer xo‘jaligining yangi boshlig‘iga ijaraning faqatgina qolgan muddati davomida yer uchastkasidan foydalanish huquqi o‘tadi.

**MISOL**

*“A” fermer xo‘jaligiga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasi 2000 yil mart oyida 35 yilga, ya‘ni 2035 yil mart oyigacha ijaraga berilgan. 2023 yil aprel oyida fermer xo‘jaligining boshlig‘i almasha, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkasining ijara muddati o‘zgarmagan holda 2035 yil mart bo‘lib qolaveradi*

## IV. FERMER XO‘JALIGI BOSHIG‘I O‘ZGARGANLIGI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

### 5. Fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etganda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqining merosxo‘rlarga o‘tish tartibi.

Fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etganda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonunchilikka muvofiq yer ijara shartnomasining amal qilish muddatiga merosxo‘rlarga o‘tadi.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etganda, fermer xo‘jaligi mulkiy kompleks sifatida merosxo‘rlarga o‘tadi*

**5.1.** Fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etganda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqining merosxo‘rlarga o‘zgartirish **quyidagicha bosqichlarda** amalga oshiriladi:

#### **birinchi bosqich: meros guvohnomasi olinadi.**

Meros ochilgan joydagi notarius merosxo‘r(lar)ning yozma arizasiga ko‘ra **meros guvohnomasini** beradi.

Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e‘tiboran **olti oy** o‘tganidan keyin beriladi.

*Qonun bo‘yicha meros olinganida ham, vasiyatnoma bo‘yicha meros olinganida ham, agar notarius tegishli mol-mulkka yoxud butun merosga nisbatan guvohnoma berishni so‘rab murojaat etgan shaxslardan boshqa merosxo‘rlar yo‘qligi to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lsa, guvohnoma yuqorida ko‘rsatilgan muddat tugamasidan oldin berilishi mumkin.*

Merosxo‘r (agar ko‘p bo‘lsa, ulardan biri) yoki uning vakili meros qoldiruvchining vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko‘chirmani notariusga taqdim etadi.

Fermer xo‘jaligining mol-mulki qonunchilik hujjatlariga muvofiq **vasiyatnoma orqali** meros qilib qoldirilishi mumkin.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo‘jaligining mol-mulki qonunchilikka muvofiq meros qilib qoldirilganda, xo‘jalikda faoliyatni davom ettirayotgan merosxo‘rlar merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berilganligi uchun davlat boji to‘lashdan ozod etiladilar.*

## **ikkinchi bosqich: fermer xo‘jaligi qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.**

Merosxo‘r fermer xo‘jaligi boshlig‘i o‘zgarganligi munosabati bilan fermer xo‘jalikning yangi ustavini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun **yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali** yoki **davlat xizmatlari markaziga** kelgan holda ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga fermer xo‘jaligining yangilangan ustavi, fermer xo‘jaligi boshlig‘ini vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko‘chirma, meros to‘g‘risidagi guvohnoma ilova qilinadi.

Fermer xo‘jalikning yangilangan **ustavi qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish** uchun bazaviy **hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to‘lov qilinadi** hamda qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo‘jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ariza berilganida **BHMning 90%** to‘lanadi.*

## **uchinchi bosqich: tuman (shahar) hokimligiga ariza yoziladi.**

Arizada merosxo‘r fermer xo‘jaligi boshlig‘i vafot etganligi sababli fermer xo‘jaligi boshlig‘ini va yer uchastkasini ijaraga olish huquqini unga o‘tkazish bo‘yicha yer ijara shartnomasiga o‘zgartirish kiritishni bayon qiladi, asos sifatida vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko‘chirma, meros to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi ilova qilinadi.

Ariza va ilova qilinadigan hujjatlar hokimlikka an’anaviy tartibda qog‘oz shaklida taqdim etiladi.

**ILOVADAGI  
NAMUNAGA  
QARANG**

*Fermer xo‘jaligining boshlig‘i vafot qilganligi munosabati bilan yer ijara shartnomasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha tuman (shahar) hokimligiga yoziladigan ariza namunasi ushbu Qo‘llanmaga 1-ilovada ko‘rsatilgan.*



**to‘rtinchi bosqich:** yer ijara shartnomasiga o‘zgartish kiritish bo‘yicha shartnoma tuziladi.

Yer ijara shartnomasiga o‘zgartish kiritish bo‘yicha kelishuv **ikki tomonlama** yozma shaklda (1) ijaraga beruvchi – hokimlik va (2) yangi ijaraga olgan merosxo‘r – fermer xo‘jaligining yangi boshlig‘i tomonidan **uch nusxada** imzolanadi. Shartnomaning bir nusxasi kadastr organlariga taqdim etiladi, qolgan nusxalari taraflarda qoladi.

**ILOVADAGI  
NAMUNAGA  
QARANG**

*Yer ijara shartnomasiga o‘zgartish kiritish bo‘yicha kelishuvning namunaviy loyihasi ushbu Qo‘llanmaga 2-ilovada ko‘rsatilgan.*

**beshinchi bosqich:** fermer xo‘jaligining yerga bo‘lgan huquqi qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquq belgilangan tartibda **davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng vujudga keladi.**

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun quyidagilar **asos bo‘ladi:**

a) fermer xo‘jaligi boshlig‘ini vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko‘chirma;

b) meros to‘g‘risidagi guvohnoma;

v) yer uchastkasining ijara shartnomasi.

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun **yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga** ijara shartnomasiga o‘zgartirish kiritilgan kundan boshlab **bir oy ichida** murojaat qilish lozim (bir oylik muddatni buzish ma‘muriy jarima qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi).

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Kadastr organlari tomonidan **2 ish kuni ichida** amalga oshiriladi.

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun **bazaviy hisoblash miqdorining 5,0 baravarida to‘lov undiriladi.**

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo'jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ariza berilganida **BHMning 90%** to'lanadi.*

**5.2. Fermer xo'jaligi boshlig'i** (1) pensiya yoshiga to'lganda, (2) mehnat qobiliyatini yo'qotganda, (3) muddatli harbiy xizmatga chaqirilganda, (4) oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganda, (5) saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganda **yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini fermer xo'jaligining yangi boshlig'iga o'tkazish tartibi.**

Fermer xo'jaligi boshlig'ini va yer uchastkasini ijaraga olish huquqini o'z oila a'zolaridan biriga o'tkazish zarurati yuzaga kelganda, yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini fermer xo'jaligining yangi boshlig'iga o'tkazish mumkin.

**6.** Tegishli holat yuz berganligi quyidagi hujjatlar bilan tasdiqlanadi:

Asos	Hujjat nomi	Tasdiqlovchi hujjatni beruvchi tashkilot
<b>Pensiya yoshiga to'lganligi</b>	pensiya guvohnomasi	Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi
<b>Mehnat qobiliyatini yo'qotganligi</b>	tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosasi	hududiy Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari
<b>Muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi</b>	chaqiriluvchining qayd etilganligi to'g'risidagi guvohnoma	tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi
<b>Oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganligi</b>	o'qish joyidan ma'lumotnoma	oliy ta'lim muassasalari (OTM)
<b>Saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi</b>	saylanganligi to'g'risida guvohnoma	Markaziy saylov komissiyasi, Viloyat, tuman, shahar saylov komissiyalari

**7.** Fermer xo'jaligi boshlig'ini o'zgartirish **quyidagicha bosqichlarda** amalga oshiriladi:

**birinchi bosqich:** fermer xo'jaligi a'zolarining umumiy yig'ilishi o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilishda fermer xo'jaligi boshlig'iligini almashtirish va fermer xo'jaligi ustaviga o'zgartirish kiritish masalalari muhokama qilinadi, fermer xo'jaligining yangi boshlig'i nomzodi ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy yig'ilish yakuni bo'yicha **qaror qabul qilinadi.**

**ILOVADAGI  
NAMUNAGA  
QARANG**

*Fermer xo'jaligining yig'ilish bayoni namunasi ushbu Qo'llanmaga 3-ilovada ko'rsatilgan.*

**ikkinchi bosqich: fermer xo'jaligi qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.**

Fermer xo'jaligining boshlig'i o'zgarganligi munosabati bilan fermer xo'jalikning **yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.**

Fermer xo'jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun **yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga o'zi kelgan holda** murojaat qilish lozim.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishi yer uchastkalarini ijaraga olish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun taraflar tomonidan imzolangan yer ijara shartnomasi asos bo'ladi.

Arizada fermer xo'jaligi boshlig'ini almashtirilganligi va yangi boshliq tayinlanganligi munosabati bilan tuman hokimligi va fermer xo'jaligi o'rtasida tuzilgan ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritilganligi bayon etiladi hamda shu munosabat bilan fermer xo'jaligi ustaviga o'zgartirish kiritish so'ralgan holda quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- a) umumiy yig'ilish qarori;
- b) yer uchastkasining ijara shartnomasi.

Fermer xo'jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun **bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to'lov** qilinadi.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo'jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ariza berilganida **BHMning 90%** to'lanadi.*

### **uchinchi bosqich: tuman (shahar) hokimligiga ariza yoziladi.**

Arizada pensiya yoshiga to'lganligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi, shuningdek muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganligi, saylab qo'yiladigan lavozimlarga saylanganligi ko'rsatiladi hamda unga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) ushbu Qo'llanmaning 6-bandida ko'rsatilgan tegishli hujjat nusxasi;

b) umumiy yig'ilish qarori.

Arizada va ilova qilinadigan hujjatlar hokimlikka an'anaviy tartibda qog'oz shaklida taqdim etiladi.

**ILOVADAGI  
NAMUNAGA  
QARANG**

*Fermer xo'jaligining boshlig'i almashganligi munosabati bilan yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha tuman (shahar) hokimligiga yoziladigan ariza namunasi ushbu Qo'llanmaga 4-ilovada ko'rsatilgan.*

### **to'rtinchi bosqich: yer uchastkasi ijarasi shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha uch tomonlama shartnoma tuziladi.**

Uch tomonlama shartnoma **to'rt nusxada** yozma shaklda tuziladi hamda (1) ijaraga beruvchi – hokimlik, (2) muqaddam ijaraga olgan – fermer xo'jaligining sobiq boshlig'i va (3) yangi ijaraga olgan – yangi fermer xo'jaligining yangi boshlig'i tomonidan imzolandi. Uch tomonlama shartnomasining bir nusxasi kadastr organlariga taqdim etiladi, qolgan nusxalari taraflarda qoladi.

**ILOVADAGI  
NAMUNAGA  
QARANG**

*Yer ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha uch tomonlama kelishuvning namunaviy loyihasi ushbu Qo'llanmaga 5-ilovada ko'rsatilgan.*

### **beshinchi bosqich: yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.**

Yer uchastkasiga bo'lgan huquq belgilangan tartibda **davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng vujudga keladi.**

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagilar **asos bo'ladi**:

- a) umumiy yig'ilish qarori;
- b) yer uchastkasining ijara shartnomasi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun **yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga** ijara shartnomasiga o'zgartirish kiritilgan kundan boshlab **bir oy ichida** murojaat qilish lozim (bir oylik muddatni buzish ma'muriy jarima qo'llanilishiga sabab bo'ladi).

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish Kadastr organlari tomonidan **2 ish kuni ichida** amalga oshiriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun **bazaviy hisoblash miqdorining 5,0 baravarida to'lov** undiriladi.

**BUNI BILISH  
ZARUR**

*Fermer xo'jalikning yangilangan ustavi qayta davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ariza berilganida **BHMning 90%** to'lanadi.*

## **Fermer xo‘jaligi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari:**

1. Yer [kodeksi](#);

---

2. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi [Qonuni](#);

---

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktabrdagi PF–5199-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [Farmoni](#);

---

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi PF–3709-son “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [Farmoni](#);

---

5. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 501-son “Tugatilayotgan yoki maqbullashtirilayotgan fermer xo‘jaligi yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi boshqa subyektlarga ajratilgan yer maydonida sarflangan xarajatlar qiymatini hisoblash va qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi [qarori](#);

---

6. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 yanvardagi 14-son “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarini yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [qarori](#);

---

7. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 258-son “Sabzavot-polizchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklarining yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qarori](#).

---

**Qo'llanmaga  
1-ILOVA**

**FERMER XO'JALIGINING BOSHIG'I VAFOT QILGANLIGI  
MUNOSABATI BILAN YER IJARA SHARTNOMASIGA O'ZGARTIRISH  
KIRITISH BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) HOKIMLIGIGA  
YOZILADIGAN ARIZA NAMUNASI**

**Ishtixon** tumani hokimi  
**A.Aliyevga**

“**Shodlik**” fermer xo'jaligi boshlig'i  
**I.Jo'rayevning** qonuniy merosxo'ri,  
**Ishtixon** tumani, **Mustaqillik** MFY,  
**Ishonch** ko'chasi, **5-uyda** yashovchi  
fuqaro **A.Jo'rayevdan**

**ARIZA**

Meni ariza yozishimdan maqsadim shuki, **otam Jo'rayev Ibodulla Xatamovich** tumandagi “**Shodlik**” fermer xo'jaligi boshlig'i sifatida **2012** yildan buyon faoliyat yuritgan hamda tuman hokimligi va fermer xo'jaligi o'rtasida **105-son** yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi **2012** yil **10 mart** kuni tuzilgan.

**Otam Jo'rayev Ibodulla Xatamovich 2022** yil **15 avgust** kuni vafot etganligi sababli, “**Shodlik**” fermer xo'jaligi boshlig'ini va yer uchastkasini ijaraga olish huquqi **Ishtixon** tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius **B.Xoshimov** tomonidan **2023** yil **10 mart** kuni berilgan meros guvohnomasiga asosan menga o'tkazildi.

Yuqoridagilarga ko'ra, “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi Qonunning **13-moddasiga** asosan “**Shodlik**” fermer xo'jaligi va tuman hokimligi o'rtasida **2012** yil **10 mart** kuni tuzilgan yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasiga o'zgartirish kiritishingizni so'rayman.

*Ilova:*

- 1. Fermer xo'jaligi boshlig'ini vafot etganligi haqidagi guvohnoma yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirma;*
- 2. Meros to'g'risidagi guvohnoma.*

**2023 yil 1 fevral.**

“**Shodlik**” fermer xo'jaligi  
boshlig'i **I.Jo'rayevning**  
qonuniy merosxo'ri, fuqaro

IMZO

**A.Jo'rayev**

Qo'llanmaga  
2-ILOVA

YER IJARA SHARTNOMASIGA O'ZGARTISH KIRITISH BO'YICHA  
KELISHUVNING NAMUNAVIY LOYIHASI

Fermer xo'jaligi boshlig'ini o'zgartirish bo'yicha **2012 yil 10 martdagi** "Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida"gi **105-son** shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi  
**KELISHUV**

**2023 yil 15 mart**

**312-son**

**Ishtixon tumani**

Bundan buyon matnda "Ijaraga beruvchi" deb yuritiluvchi **Ishtixon** tuman (shahar) hokimi **A.Aliyev**, bir tomondan, hamda bundan buyon matnda "Ijaraga oluvchi" deb yuritiluvchi "Shodlik" fermer xo'jaligi boshlig'i **I.Jo'rayevning** qonuniy merosxo'ri fuqaro **A.Jo'rayev** ikkinchi tomondan quyidagilar haqida mazkur Kelishuvni tuzdilar.

### 1. KELISHUV PREDMETI

**1.1.** Fermer xo'jaligining amaldagi boshlig'i **I.Jo'rayevda 2022 yil 15 avgustda** vafot etganligi hamda tumandagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius **B.Xoshimov** tomonidan ijaraga oluvchiga **2023 yil 10 mart** kuni meros guvohnomasi berganligi sababli, ijaraga oluvchi "Fermer xo'jaligi" to'g'risidagi Qonunning [13-moddasiga](#) asosan fermer xo'jaligi boshlig'ini o'zgartirish yuzasidan **2023 yil 1 fevralda** tuman hokimligiga murojaat qilgan.

Shunga ko'ra, tomonlar "Ijaraga beruvchi" va "Shodlik" fermer xo'jaligi o'rtasida **2012 yil 10 mart kuni** tuzilgan "Fermer xo'jaligiga yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berish to'g'risida"gi **105-son** shartnomaga (keyingi o'rinlarda – "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha kelishdilar:

**a)** Shartnomaning kirish qismi, rekvizitlaridagi "Ijaraga oluvchi" deb yuritiluvchi "Shodlik" fermer xo'jaligi boshlig'i "**I.Jo'rayev**" so'zlari "Ijaraga oluvchi" deb yuritiluvchi "Shodlik" fermer xo'jaligi boshlig'i "**A.Jo'rayev**" so'zlariga almashtirilsin.

**1.2.** Shartnomaning qolgan bandlari o'zgartirishsiz qoldirilsin.

### 2. KELISHUVNING AMAL QILISHI

**2.1.** Ushbu Kelishuv tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

**2.2.** Ushbu Kelishuv va ilgari tuzilgan Shartnoma qoidalari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Kelishuvning qoidalari qo'llaniladi.

### 3. QO'SHIMCHA SHARTLAR VA YAKUNLOVCHI QOIDALAR

**3.1.** Mazkur Kelishuv Tomonlarning kelishuviga binoan o'zgartirilishi yoki



to'ldirilishi mumkin.

**3.2.** Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

**3.3.** Ushbu Kelishuv kuchga kirgan paytdan boshlab Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi.

**3.4.** Kelishuvning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

**3.5.** Ushbu Kelishuv bo'yicha, shuningdek Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik yoki nizolar muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuv yuzasidan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sud tartibida hal etiladi.

**3.6.** Mazkur Kelishuvda ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

**3.7.** Mazkur Kelishuv bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan uch nusxada tuzilib, "Ijaraga beruvchi", "Ijaraga oluvchi" va Davlat kadastrlari palatasining **Ishtixon** tuman (shahar) filialiga bir nusxadan beriladi.

#### **4. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:**

**"Ijaraga beruvchi"**  
**Ishtixon tuman hokimi**  
**A.Aliyev**

**"Ijaraga oluvchi"**  
**"Shodlik" fermer xo'jaligi boshlig'i**  
**A.Jo'rayev**

H/v: \_\_\_\_\_  
STIR - Bank kodi - \_\_\_\_\_

H/v: \_\_\_\_\_  
STIR - Bank kodi- \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, mansabi F.I.O./*

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, mansabi F.I.O./*

Kelishuv 20\_\_ yil \_\_\_\_\_da \_\_\_son tartib raqami bilan Davlat kadastrlari palatasining **Ishtixon** tuman (shahar) filialida davlat ro'yxatdan o'tkazilgan.

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, lavozimi, F.I.O./*

**Qo‘llanmaga  
3-ILOVA**

**FERMER XO‘JALIGINING YIG‘ILISH BAYONI  
NAMUNASI**

“**Shinam**” fermer xo‘jaligining umumiy yig‘ilish

**BAYONI**

**2023 yil “1” mart**

**2-son**

**Ishtixon** tumani

Yig‘ilish raisi:

**A.Bozorqulov** – “**Shinam**”  
fermer xo‘jaligi boshlig‘i

Qatnashdilar:

fermer xo‘jaligining **15** nafar  
ishchi xodimlaridan **12** nafari  
ishtirok etdi (yoki barcha ishchi  
xodimlari ishtirok etdi)

**KUN TARTIBI:**

**1.** “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘ini o‘zgartirish hamda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishni tashkil etish to‘g‘risida

Yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i **A.Bozorqulov** so‘zga chiqib, \_\_\_\_\_ (*quyidagi sabablardan biri ko‘rsatiladi* – (1) pensiya yoshiga to‘lganligi, (2) mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi, (3) muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi, (4) oliy ta‘lim muassasalariga kunduzgi o‘qishga qabul qilinganligi, (5) saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi) sababli “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning **13-moddasiga** muvofiq fermer xo‘jaligi boshlig‘i **turmush o‘rtog‘i** (*yoki oila a‘zolaridan biri*) **O.To‘rayevaga** ijara shartnomasi amal qilishining qolgan muddatga o‘tkazib berish to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tdi.

Shunga ko‘ra, “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i **A.Bozorqulov Ishtixon** tuman hokimligi va “**Shinam**” fermer xo‘jaligi o‘rtasida **2012 yil 5 iyul kuni** tuzilgan “Fermer xo‘jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to‘g‘risida”gi **320-son** shartnomasi va fermer xo‘jaligi ustaviga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yerga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish lozimligini bildirdi.

Shundan so‘ng yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan fermer xo‘jaligi a‘zolari \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ lar fermer xo‘jaligi boshlig‘ining taklifini fermer xo‘jaligi a‘zolari nomidan **bir ovozdan ma‘qulladilar**.

Yig‘ilish so‘ngida, “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i **A.Bozorqulov** yig‘ilish qatnashchilaridan qanday qo‘shimchalar borligi hamda takliflar kiritishi mumkinligini tushuntirdi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama etib, yig'ilish

### QAROR QILADI

1. “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i **A.Bozorqulovning** yig‘ilish kun tartibidagi masala yuzasidan bergan topshiriqlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i **A.Bozorqulovning** \_\_\_\_\_ (*quyidagi sabablardan biri ko‘rsatiladi – (1) pensiya yoshiga to‘lganligi, (2) mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi, (3) muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi, (4) oliy ta‘lim muassasalariga kunduzgi o‘qishga qabul qilinganligi, (5) saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi*) sababli egallab turgan **vazifasidan ozod etilsin.**

3. “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i etib **O.To‘rayevaga** tayinlansin.

4. “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i etib tayinlangan **O.To‘rayevaga:**

– **Ishtixon** tuman hokimligi va “**Shinam**” fermer xo‘jaligi o‘rtasida **2012 yil 5 iyul kuni** tuzilgan “Fermer xo‘jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to‘g‘risida”ga o‘zgartirish kiritish yuzasidan tuman hokimligiga ariza bilan murojaat qilsin;

– fermer xo‘jaligining yangilangan ustavi qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yoki davlat xizmatlari markaziga o‘zi kelgan holda murojaat qilsin;

– yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun **davlat xizmatlari markaziga** ijara shartnomasiga o‘zgartirish kiritilgan kundan boshlab **bir oy ichida** murojaat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. **O.To‘rayevaga** “**Shinam**” fermer xo‘jaligining muhri boshqa hujjatlari topshirilsin.

6. Yig‘ilish bayonida keltirilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlashni nazorat qilish **O.To‘rayevaga** yuklatilsin.

Yig‘ilish raisi:

**A.Bozorqulov**

\_\_\_\_\_

*Imzo*

Yig‘ilish kotibi:

**D.Bozorqulov**

\_\_\_\_\_

*Imzo*

**Qo'llanmaga  
4-ILOVA**

**FERMER XO'JALIGINING BOSHLIG'I ALMASHGANLIGI  
MUNOSABATI BILAN YER IJARA SHARTNOMASIGA O'ZGARTIRISH  
KIRITISH BO'YICHA TUMAN (SHAHAR) HOKIMLIGIGA  
YOZILADIGAN ARIZA NAMUNASI**

**Ishtixon** tumani hokimi  
**A.Aliyevga**

**Ishtixon** tumanida joylashgan  
"Shinam" fermer xo'jaligi  
boshlig'i **O.To'rayevadan**

**ARIZA**

"Shinam" fermer xo'jaligi hamda tuman hokimligi o'rtasida **2012 yil 5 iyul** kuni fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida shartnoma tuzilgan.

"Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi, "Shinam" fermer xo'jaligining **2023 yil 1 martdagi** umumiy yig'ilish qaroriga asosan men **O.To'rayeva A.Bozorqulov** o'rniga ijara shartnomasi amal qilish muddatining qolgan muddatiga "Shinam" fermer xo'jaligining boshlig'i etib saylandim.

Yuqoridagilarga ko'ra, tuman hokimligi va fermer xo'jaligi o'rtasida **2012 yil 5 iyul** kuni "Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish to'g'risida"gi **320-son** shartnomaga tegishli o'zgartirish kiritishingizni so'rayman.

*Ilova:*

1. Fermer xo'jaligi umumiy yig'ilish bayoni;
2. Fermer xo'jaligi rahbarini almashtirish uchun asos bo'luvchi hujjatlar (*quyidagilardan biri ilova qilinadi: pensiya guvohnomasi, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining xulosasi, muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi bo'yicha mudofaa ishlari bo'limi xati, oliy ta'lim muassasalariga kunduzgi o'qishga qabul qilinganligi bo'yicha ma'lumotnoma, saylanganligi to'g'risida guvohnoma*)

**Fermer xo'jaligi rahbari**

*IMZO  
(Muhr)*

**O.To'rayeva**

**Qo'llanmaga  
5-ILOVA**

**YER IJARA SHARTNOMASIGA O'ZGARTIRISH KIRITISH BO'YICHA UCH  
TOMONLAMA KELISHUVNING NAMUNAVIY LOYIHASI**

**2012 yil 5 iyuldagi “Fermer xo‘jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatli  
ijaraga olish to‘g‘risida”gi 320-son shartnomaga fermer xo‘jaligi rahbari  
o‘zgarganligi munosabati bilan o‘zgartirish kiritish haqidagi  
KELISHUV**

**2023 yil 10 mart**

**554- son**

**Ishtixon tumani**

Bundan buyon matnda “**Ijaraga beruvchi**” deb yuritiluvchi **Ishtixon** tuman hokimi **A.Aliyev**, bir tomondan, hamda bundan buyon matnda “**Fermer xo‘jaligi amaldagi boshlig‘i**” deb yuritiluvchi “**Shinam**” fermer xo‘jaligi sobiq boshlig‘i **A.Bozorqulov** ikkinchi tomondan va bundan buyon matnda “**Fermer xo‘jaligi yangi boshlig‘i**” deb yuritiluvchi **O.To‘rayeva**, uchinchi tomondan quyidagilar haqida mazkur Kelishuvni tuzdilar.

### 1. KELISHUV PREDMETI

**1.1.** Fermer xo‘jaligining amaldagi boshlig‘i quyidagi sabablarga \_\_\_\_\_ (*quyidagilardan biri ko‘rsatiladi: (1) pensiya yoshiga to‘lganligi, (2) mehnat qobiliyatini yo‘qotganligi, (3) muddatli harbiy xizmatga chaqirilganligi, (4) oliy ta‘lim muassasalariga kunduzgi o‘qishga qabul qilinganligi, (5) saylab qo‘yiladigan lavozimlarga saylanganligi*) ko‘ra o‘z vazifasini bajara olmasligi sababli, “**Shinam**” fermer xo‘jaligi umumiy yig‘ilishning **2023 yil 1 martdagi** qaroriga asosan fermer xo‘jaligi yangi boshlig‘i **O.To‘rayeva** tayinlangan.

Shunga ko‘ra, tomonlar “Ijaraga beruvchi” va “**Shinam**” fermer xo‘jaligi o‘rtasida tuzilgan **2012 yil 5 iyulda** tuzilgan “Fermer xo‘jaligiga yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berish to‘g‘risida”gi **320-son** shartnomaga (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha kelishdilar:

a) Shartnomaning kirish qismi, rekvizitlaridagi “**Ijaraga oluvchi**” deb yuritiluvchi “**Shinam**” fermer xo‘jaligi boshlig‘i “**A.Bozorqulov**” so‘zlari “**O.To‘rayeva**” so‘zlariga almashtirilsin.

**1.2.** Shartnomaning qolgan bandlari o‘zgartirishsiz qoldirilsin.

### 2. KELISHUVNING AMAL QILISHI

**2.1.** Ushbu Kelishuv tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

**2.2.** Tomonlar o‘rtasida ilgari tuzilgan ushbu kelishuvga zid bo‘lgan barcha kelishuvlar va shartlar mazkur kelishuv kuchga kirgan paytdan boshlab o‘z kuchini yo‘qotadi.

**2.3.** Ushbu Kelishuv va ilgari tuzilgan Shartnoma qoidalari o‘rtasida ziddiyat

yuzaga kelgan taqdirda, mazkur Kelishuvning qoidalari qo'llaniladi.

### 3. QO'SHIMCHA SHARTLAR VA YAKUNLOVCHI QOIDALAR

**3.1.** Mazkur Kelishuv Tomonlarning kelishuviga binoan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

**3.2.** Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

**3.3.** Ushbu Kelishuv kuchga kirgan paytdan boshlab Shartnomaning ajralmas qismiga aylanadi.

**3.4.** Kelishuvning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

**3.5.** Ushbu Kelishuv bo'yicha, shuningdek Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik yoki nizolar muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuv yuzasidan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan sud tartibida hal etiladi.

**3.6.** Mazkur Kelishuvda ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

**3.7.** Mazkur Kelishuv bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan to'rt nusxada tuzilib, "Ijaraga beruvchi", "Fermer xo'jaligi sobiq boshlig'i", "Fermer xo'jaligi yangi boshlig'i" va Davlat kadastrlari palatasining **Ishtixon** tuman (shahar) filialiga bir nusxadan beriladi.

### 4. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

**"Ijaraga beruvchi"**  
**Ishtixon tuman hokimi**  
**A.Aliyev**

**"Ijaraga oluvchi"**  
**"Shinam"** fermer xo'jaligi yangi boshlig'i  
**O.To'rayeva**

H/v:	H/v:
STIR - _____	STIR - _____
Bank kodi - _____	Bank kodi- _____

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, mansabi F.I.O./*

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, mansabi F.I.O./*

**"Ijaraga oluvchi"**  
**"Shinam"** fermer xo'jaligi sobiq boshlig'i  
**A.Bozorqulov**

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, mansabi F.I.O./*

Kelishuv 20\_\_ yil \_\_\_\_\_da \_\_\_son tartib raqami bilan Davlat kadastrlari palatasining **Ishtixon** tuman (shahar) filialida davlat ro'yxatdan o'tkazilgan.

\_\_\_\_\_  
*m.o'. /imzo, lavozimi, F.I.O./*